

## **Psixologiya fani rivojlanish tarixi**

**Ismailov. S**

UrDU Pedagogika va Psixologiya  
kafedrasi o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada psixologiya fani kelib chiqishi tarixi, rivojlanish davrlari, hozirgi kundagi asosiy psixologiya yo'nalishlari, psixologiyaning hozirgi kunda nimani o'rganishi qisqacha keltirib o'tilganm

**Kalit so'zlar:** evolutsiya, temperament, Kognitiv psixologiya, Psixoanaliz, Geshtalt, Refleks, ong osti, Psixologiya.

**Abstract:** In this article, the evolution of the subject psychology, development periods, main present approaches, what psychology study today are given shortly.

**Key words:** evolution, temperamentum, Cognitive psychology, Psychoanalysis, Gestalt psychology, Reflex, unconscious, psychology.

Bugungi kunda psixologiya fani dunyoning barcha mamlakatlarida ta'lim tizimining ma'lum bir bo'lagida o'z o'rniga ega. Hozirgi kunda psixologiyaning jami 400 dan ortiq sohalari mavjud va u deyarli barcha inson faoliyat yuritadigan sohalarni qamrab oladi. [1] Tibbiyotda bo'lgani kabi psixologiya ham turli xil tarmoqlarga bo'linib ketadi. Bular tibbiyot psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, konsultatsiya psixologiyasi. Bir psixolog uchun barchasida faoliyat yuritish esa imkonsiz holat hisoblanadi.

Bugungi kunda psixologiya sohasida maxsus bilimga ega bo'lmagan ko'pchilik odamlar uni faqatgina divanda o'tirgan holatda suhbatlashishdan iborat deb o'ylashadi. Psixologiya haqida fikr yuritilar ekan, ko'pchilik faqatgina umumiy fikrlarni, ayrim hollarda esa noto'g'ri fikrlarni ilgari suradilar.

Biz ushbu maqolada asosan, psixologiyaning fani sifatida rivojlanish bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan kashfiyotlar, omillarni, bugungi kunda faning nimani o'rganishiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Birinchi navbatda so'zni psixologiya so'zini kelib chiqishidan boshlasak. "Psixologiya" so'zining lug'aviy ma'nosi *psyche* ma'nosi "jon", "ruh" va *logos* "o'rganish" ma'nolarini anglatadi. [2] "Psixologiya" terminidan birinchi bo'lib 1590-yilda foydalanilgan. Psixologiya rivojlanishi ikki davrga bo'lgan holda o'rganiladi. Bular psixologiyaning falsafa tarkibida va mustaqil fan sifatida rivojlanish davrlari hisoblanadi.

Psixologiya daslab falsafa tarkibida rivojlangan. Inson ruhiyati haqida gap ketar ekan faqatgina og'zaki nazariyalar bilan ma'lum bir ruhiy holatni tushuntirishga harakat qilingan. Fanning rivojlanish ildizi ko'plab boshqa fanlar kabi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. O'sha davrda faylasuflar dunyodagi jarayonlar haqida o'zlarining qarashlarini bayon qilib borganlar. Tabiiyki odamlarda inson ruhiyati haqida ham savollar paydo bo'lgan. Aristotel, Gippokrat, Galen o'zlarining inson ruhiyati haqida bir biridan qiziqarli va hozirgi zamon psixologiyasiga ham ta'sir ko'rsatadigan qarashlarini ilgari surganlar. Hozirda biz foydalanadigan "Temperament" tushunchasi qadimgi yunon olimi Galen fanga kiritgan. Olimlar bugungi kunda Galenning inson tana tuzlishi bo'yicha qarashlarida juda ko'p xatolarni aniqlaganlar. Ammo uning umum g'oyalari bugungi kun fani rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.[1]

Bundan tashqari psixologiyaning rivojlanishda Dekartning qarshlari ham o'z o'rniga ega. Dekart birinchi bo'lib "refleks" tushunchasini fanga kiritgan olim hisoblanadi. [3]

Jamiyat rivojlangani sayin tabiiy fanlarning ham rivojlanishi tezlashadi. Ushbu rivojlanish esa psixologiya fanining ham rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Fiziologiya sohasidagi yutuqlar psixologiyaning ham rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Falsafa tarkibida inson ruhiyatiga va aloqador ko'plab yangi yangi kashfiyotlar yaratildi. Bular: Gipnozdan foydalanish, Charliz Darvinning emolutsion nazariyasi, egzistional qarashlarning boshlanishi, miya yarim sharlari haqidagi bilimlarning rivojlanishi, qobilyatning rivojlanishini nasliy va muhit omillarini o'rganish, ong masalasi. Bu kabi ko'plab boshqa kashfiyotlar inson ruhiyatini o'rganuvchi alohida fanga bo'lgan ehtiyojni oshirdi.

1879-yilda Germaniyaning Leypsig shahrida birinchi psixologik laboratoriyaga nemis olimi Vilgelm Vund tomonidan asos solinishi, fani aniq o'lchovlar asosida o'rganishga yordam berdi. O'shanda Vund sezgi va idrok ustida eksperiment o'tkazgan edi. Bunda u sezgi va idrok alohida jarayon ekanligini, idrokning sezgiga nisbatan ko'p vaqt olishini aniqlagan edi. Ushbu sana bugunki kun psixologiya olamida fanning mustaqillik sanasi sifatida qabul qilingan. [5]

Psixologiya sohasidagi yirik maktablardan birinchisi bu psixoanaliz maktabi hisoblanadi. Psixoanalizning paydo bo'lishi psixologikya sohasining rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Zigmund Freyd inson xulq-atvori shakillanishiga ong osti ruhiy jarayonlarining ta'sirini asosiy deb hisoblab, uni o'rganishga kirishdi.

Endi psixologiya olamida inson ruhiy jihatdan shakillanishiga ko'proq nima ta'sir ko'rsatishi haqida bahs munosaralar paydo bo'la boshladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida Psixoanalizga e'tiroz sifatida "bihaviorizm" nazariyasi paydo bo'ldi. Behavioristlar shunday qarash bilan chiqadilarki, fan o'lchash va tushuntirish mumkin bo'lgan hodisalarni o'rganishi kerak. Psixologiya bu fan shuning uchun psixologiya bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan ong osti jarayonlarini o'rniga, kuzatish mumkin bo'lgan xulq-atvorni tadqiq qilishi kerak degan xulosaga keladilar.

Behavioristlar o'z tajribalarini hayvonlarda o'tkazganlar va olingan natijalar asosida insonlar psixologiyasini o'rganishga harakat qilganlar. Behaviorizm rivojlanishiga Ivan Pavlovning itlarda o'tkazgan eksperimenti asos vazifasini bajaradi.

Yevropada esa behaviorizmga qarshi Geshtalt psixologiyasi asosida yangi psixologiya yo'nalishi "Kognitiv psixologiya" paydo bo'ldi. Kognitiv psixologiya xotira, idrok, diqqat kabi aqliy jarayonlarning inson psixikasiga ta'sirini o'rgana boshladilar.

Bugungi kunda psixologiya olamida bir nechta asosiy yo'nalishlar mavjud. Bular quyidagilar:

- Psixoanaliz;
- Behaviorizm;
- Kognitive psixologiya.[4]

Bulardan tashqari boshqa psixologiya yo'nalishlari ham mavjud. Ammo ularning ta'siri kam va kamroq foydalaniladi. Bular Geshtal psixologiya, Gumanistik psixologiya, Egzistionalizm yo'nalishlari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda psixologiyada bir nechta asosiy yondashuvlar mavjud, ularning har biri psixologiyani nimani o'ranishi kerak degan savolga o'z yondashuvlari bilan javob beradilar. Ammo faqat birini to'g'ri boshqasini esa noto'g'ri deb bo'lmaydi. Har birining kuchli va kuchsiz tomonlari mavjud. Ulardan o'z o'rnida foydalanish esa psixologlarning mahoratlariga bog'liq. Ko'pchilik psixologlar ulardan birini tanlab shu asosda o'zlarini ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'zlari o'rgangan yondashuv samaralishi hal qilishi mumkin bo'lgan muammolar bilan ko'roq ishlaydilar.

Psixologiya bugungi kunda emotsiya, xulq-atvor, aqliy jarayonlar, nerv sistemasi va miyaning faoliyatini, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi va o'z bilimlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkillashtirishda, media va ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlarini oldini olish va yo'qotishda foydalaniladi.

Ebbingauz shunday deydi – “Psixologiya uzoq o'tmishga, qisqa tarixga ega”. [3]

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. “Umumiy psixologiya” Xaydarov, Xalilova.
2. “Umumiy psixologiya” Ivanov.
3. “The Psychology Book: Big ideas simply explained”, Nigel Benson.
4. [www.Verywellmind.com](http://www.Verywellmind.com)
5. Wikipedia